

Qumbaliqning hikoyasi



09:57 / 23.10.2023 3506

Assalomu alaykum, men o'zimni sizlarga qanday qilib tanishtirсам ekan-a? Sizlarning ko'pchiligingiz meni ko'rmagansiz. Meni Arab diyorlarida Zab deb atashadi. Asosan sahrolarning qum barxanlari orasida yashayman. Ikkinchi nomim ham bor – Qumbaliq. Ko'rinishim baliqqa o'xshasa kerak-da, shuning uchun Qumbaliq deyishadi. Baliq, bilasiz, suvda yashaydi. Men bo'lsam qumda. Odamlar suvdagi baliqlarni ovlashgani kabi meni ham ovlashadi. Ha, pishirib yeyishadi.

Mayli, gap bu haqda emas, gap Allohning haq Payg'ambari Muhammad alayhissalomning shafaotlariga yetishmoq haqida. U kishini bir bor ko'rishni, muborak so'zlarini eshitishni nafaqat odamlar, biz jonivorlar ham orzu qilar edik. Shunday mo'jiza yuz berishini Allohdan yolvorib so'rardik. Qani endi u zoti

muborakning biron-bir mo'jizalariga biz ham guvoh bo'lsak, der edik.

Bir kuni g'ayridin bir odam meni tutib oldi. U sahroda yashaydigan kattakon bir qavmdan edi. Bu qavmda yashovchilar Lot, Manot degan butlarga sig'inishardi. Ana shu arabiy yo'lda keta turib bir qancha odamlarning to'planib turganiga ko'zi tushdi. Odamlar kimningdir gapini diqqat bilan tinglashar edi. Arabiy odamlarga yaqinlashib «Bu yerda nima bo'lyapti?» deb so'radi. «Allohning haq Payg'ambari Muhammad Rasululloh va`z aytayaptilar», deyishdi unga. Arabiy qiziqib, davraga kirdi, bundan men juda quvonib ketdim. Chunki Muhammad alayhissalomning muborak ovozlari eshita boshlagan edim-da! U kishi Alloh yuborgan din – Islom dini haqida gapirardilar. Bu yorug' dunyo sinov dunyosi ekanligini, oxirat kunida qayta tirilish borligini, bu dunyoda savob topganlar jannatga doxil bo'lishlarini, gunohkorlar esa do'zax azoblariga duchor bo'lishlarini uqtirardilar.

Arabiy o'ta andishasiz, qo'pol, qo'rs, ammo qo'rqmas odam edi. U Payg'ambarimizning muborak so'zlarini eshitar ekan bir qadam oldinga chiqdida, jahl bilan dedi:

– Ey Muhammad, qanchalar yolg'on so'zlarni demoqdasan. Odam bolasi chirib tuproqqa aylangandan keyin yana qayta tirilishiga qaysi ahmoq ishonardi. Meni odamlar zolim deb malomat qilishmaganida hoziroq seni o'ldirgan bo'lardim. Sen yolg'onchisan!

To'planib turganlar uning bu so'zlaridan bir to'lg'anib tushishdi va arabiyga qahr bilan qarashdi.

– Yo Rasululloh, – dedi ulardan biri, qilichiga qo'l yuborib, – ruxsat eting, bu kofirning boshini olay.

Shunda Rasululloh u kishini qaytarib:

– Bilurmisan, ey Umar, sabrli kishining darajasi Payg'ambar darajasiga yaqindur, og'ir bo'l, – dedilar.

Shunda arabiy qo'yniga qo'l soldi-da, meni olib, o'rtaga tashladi va dedi:

– Ey Muhammad, sening haq Payg'ambar ekanligingga shu jonivor guvohlik bersa, Lot, Manot xudolarimiz bilan qasam ichib aytamanki, shu zahoti ulardan yuz o'girib, iymon keltiraman. Va sening diningga kiraman.

Turganlar endi nima bo'larkin, deb bir menga, bir Payg'ambarimizga qarab qolishdi. Men esa Muhammad alayhissalomning muborak amrlarini kutardim. Shunda ul zot dedilar;

- Ey Zab!

- Labbayka va sa'dayka yo Rasululloh, - dedim.

Ha, Ollahning qudrati bilan menga arabiy zabon ato bo'lgan edi. Turganlar gur etib chayqalib ketdilar, ba'zilari «La ilaha illalloh», deb shu zahoti iymon keltirishdi.

Payg'ambarimiz davom etdilar:

- Ey Zab, kimga ibodat qilursan?

- Yer-u-ko'kda hukmi bor, do'zaxda esa azobi bor - ulug' qudrat Egasi Allohga ibodat qilurman, - dedim.

- Ey Zab, meni kim deb bilursan?

- Barcha olamni yaratgan Allohning haq Payg'ambari deb bilurman. Siz Allohga yetishgan jamiki insonlarning va payg'ambarlarning sarvaridursiz. Sizga iymon keltirganlar ikki dunyo saodatini topgay. Sizdan yuz o'girganlar esa abadiy do'zax azobida qolgay, - dedim.

Shu payt butparast arabiyning avzoyi o'zgardi, yuzlari nurlanib ketdi va shu zahoti iymon keltirib:

- Laa ilaha illalloh-u Muhammadur Rasululloh. Ey ulug' zot, hozirgina sizni dushman bilgan edim. Siz Allohning haq Rasuli, mo'minlarning do'sti ekansiz, - dedi.

Muhammad alayhissalom bu voqeadan keyin Allohga hamd-u sanolar aytdilar va arabiyga qarab dedilar:

- Musulmon bo'lishdek ulug' ne`matni Alloh senga nasib etdi. Islomning chirog'i namozdir.

Shunday deb Muhammad alayhissalom arabiyga «Fotiha» bilan «Ixlos» suralarini o'rgatdilar. Arabiy musulmon bo'lib, o'z qabilasi tomon yo'lga tushdi. U meni hamon qo'ynidan qo'ymas, biroq endi menga o'lja deb emas, balki do'st o'rnida qarar, hali zamon qumliklarga yetishimiz bilan qo'yib yuborishi haqida o'ylardi. Shu payt bizning ro'paramizdan ming chog'lik qurollangan darg'azab kishilar chiqib qolishdi.

- Ha, - dedi arabiy ularning yo'lini to'sib, chunki u shu qabiladan edi.

- Biz, - dedi haligi kishilarning boshlig'i, - bir yolg'onchi Payg'ambar chiqqanligini eshitdik, uni yo'q qilmoq uchun bormoqdamiz. Lot va Manot butlarimiz haqqi

qasam ichdik.

- Bu ishingiz xato, men ul hazratning huzurlarida bo'ldim va iymon keltirdim, - deya voqeani hikoya qilib berdi. Niyati buzuvchi odamlarning qalbi birdan yumshadi va ular ham musulmon bo'ldilar. Payg'ambarimizni ziyorat qilish uchun yo'lga tushdilar...

Erkin bobo

«Хилол» журналининг 6(51) сонидан